

SADIROVA Mubina Shavkatjon qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi Islomshunoslik fakulteti
Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **AGZAMOVA Muhabbat**
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi mudiri

IJTIHOD TUSHUNCHASI VA MUJTAHIDGA QO'YILGAN SHARTLAR

ПОНЯТИЕ ИДЖТИХАДА И ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К МУДЖТАХИДУ

THE CONCEPT OF IJTihad AND THE CONDITIONS REQUIRED FOR A MUJTAHID

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijti-hod tushunchasining islom huquqshunosligidagi o'rni, mohiyati va metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijti-hodning lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning Qur'on va Sunnatga asoslangan holda shakllanish jarayoni hamda sahobalar davridan boshlab fiqh tizimidagi rivoji yoritiladi. Shuningdek, mujtahid shaxsiga qo'yiladigan ilmiy va axloqiy talablar, ijti-hod jarayonining bosqichlari va asosiy manbalari – Qur'on, Sunnat, ijmo' va qiyosning o'zaro bog'liqligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ijti-hod, mujtahid, islom huquqshunosligi, fiqh, Qur'on, Sunnat, ijmo', qiyos, usul al-fiqh, shar'iy dalil.

Аннотация. В данной статье научно анализируются роль, сущность и методологические основы понятия иджтихада в исламском правоведении. В исследовании раскрываются лексическое и терминологическое значения иджтихада, процесс его формирования на основе Корана и Сунны, а также развитие в системе фикха начиная с эпохи сподвижников. Также анализируются научные и морально-этические требования, предъявляемые к личности муджтахиды, этапы процесса иджтихада и взаимосвязь его основных источников — Корана, Сунны, иджмы и кияса.

Ключевые слова: Иджтихад, муджтахид, исламское право, фикх, Коран, Сунна, иджма, кияс, усуль аль-фикх, шариатские доказательства.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the concept of ijti-had, its role in the Islamic legal system, as well as its essence and methodological foundations. The study examines the lexical and terminological meanings of ijti-had, its formation based on the Qur'an and Sunnah, and its development within the fiqh tradition starting from the era of the Companions. In addition, it thoroughly analyzes the scholarly and ethical requirements for a mujtahid, the stages of the ijti-had process, and the interrelationship between its primary sources – namely the Qur'an, Sunnah, ijma' (consensus), and qiyas (analogical reasoning).

Keywords: Ijti-had, mujtahid, Islamic jurisprudence, fiqh, Qur'an, Sunnah, ijma', qiyas, usul al-fiqh, Shar'i evidence.

KIRISH

Ijti-hod islom huquqshunosligi (fiqh) tizimining eng muhim va murakkab ilmiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. U shar'iy dalillardan hukm chiqarish jarayonida faqih tomonidan aqliy va ilmiy salohiyatni maksimal darajada ishga solishni anglatadi. Islom huquqi rivojlanishida ijti-hod nafaqat yangi masalalarga yechim topish vositasi, balki huquqiy tizimning moslashuvchanligini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Ijti-hod sahobalar davridan boshlab fiqhiy masalalarni hal etishda asosiy metodlardan biri bo'lib keldi va keyingi davrlarda fiqh maktablari shakllanishi bilan ijti-hod jarayoni muayyan usul va qoidalarga asoslangan tizimga aylanib, ijti-hod qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs "mujtahid" uchun zarur bo'lgan ilmiy va axloqiy shartlar aniq belgilab berildi.

ASOSIY QISM

"Ijti-hod" so'zi arab tilida **إجتهد** fe'lining masdari bo'lib, **اجتهد** kalimasidan olingan. "jahada" (**جاهد**) so'zi lug'aviy jihatdan bor kuch-quvvatni sarflash, jon-jahdi bilan urinish ma'nosini anglatadi. Bu so'z "jim" harfining fatha (a) yoki zamma (u) bilan o'qilishiga qarab turli ma'nolarni bildiradi. Ibn Manzur o'zining "Lison ul-arab" lug'atida "ijti-hod" so'zini "mashaqqatni bo'yniga olish, bor kuch-quvvatni sarflash" deb ta'riflaydi va bu ikki holat o'zaro farqlanishi, agar zamma bilan (**اجتهد**) deb o'qilsa, "kuch-quvvat" va "imkoniyat" ma'nosini

bildiradi, fatha bilan (جهد) deb o'qilganda, “mashaqqat va qiyinchilik” ma’nosini anglatishini ta’kidlab o’tgan.

Shu ildizdan kelib chiqqan “jihad” (جهاد) va “mujohada” (مجاهدة) atamaları ham mavjud bo’lib, ular insonning bor kuch va imkoniyatini to’liq safarbar etib, maqsad sari intilishi, ya’ni so’z yoki amal orqali maksimal darajada sa’y-harakat qilishini ifodalaydi. “Majhud” (مجهود) so’zi esa “ijtihod” kabi, kuch va imkoniyatni ishga solish ma’nosini bildiradi.

Qur’oni Karimda ham “jahd” ildizi turli shakllarda “jahada”, “jahadaka”, “tujahidun”, “jahidhum”, “jihad” kabi ko’rinishlarda qo’llangan. Bu so’zlar ba’zan jang qilish, ba’zan mol bilan yordam berish, ba’zan da’vat qilish yoki boshqa maqsadlarda kuch sarflash ma’nolarida ishlatilgan [6:14]. Tavba surasi 79-oyatini { لَا يَجْدُونَ إِلَّا جُهْدَهُمْ } “...kuchlari yetganda boshqani topa olmaydiganlarni...” [5:560]. Zamaxshariy sharhlab, “illa juhдахum” iborasi “ya’ni ularning imkoniyatlari darajasida”, – deb izohlaydi va bu so’z fatha ham, zamma bilan ham o’qilishi mumkinligini ta’kidlaydi [7:14].

Istelohta “ijtihod” deb, Qur’oni Karim va Payg’ambar (a.s.) sunnatidagi haqni topishga aytiladi [6:526-527]. Tabriziy ijtiҳodni “Ijtiҳod – ijtiҳod qilish shartlariga ega kishining far’iy hukmlarni, bilish yo’lida butun kuch va imkoniyatni sarflashdir.” – deya ta’rif bergan [8:7897]. Sayfiddin esa “Ijtiҳod – shar’iy hukmlarga oid muayyan bir masalada zonniy (ehtimoliy) xulosaga erishish maqsadida butun aqliy va ilmiy salohiyatni safarbar etish jarayoni bo’lib, bunda mujtahid o’zida bundan ortiq imkoniyat qolmaganini anglaydi”, – deb ta’riflagan [8:7897-7898]. Professor Abdulhakim Shar’iy Jo’zjoniy “Ijtiҳod fiqhiy atama sifatida faqih tomonidan bor imkoniyatni amaliy hukmlarni tafsiliy dalillar, ya’ni asosiy manbalardagi muayyan naslardan chiqarib olish uchun ishlatish yoki shariat hukmlarini qiyos orqali Qur’on va sunnatda belgilab olish demakdir”, – deganlar [4:45].

Keltirilgan ta’riflar va ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, ijtiҳod faqih (mujtahid) tomonidan Qur’oni Karim va Payg’ambar (a.s.) sunnatidagi shar’iy dalillardan foydalanib, amaliy (far’iy) fiqhiy hukmlarni aniqlash maqsadida barcha aqliy, ilmiy va metodik imkoniyatlarni maksimal darajada safarbar etish jarayoni hisoblanadi. Jarayonning asosiy mohiyati, mujtahid mavjud tafsiliy dalillarni

chuqur tahlil qiladi, ularni Qur’on va sunnatning umumiy tamoyillariga bog’lab, qiyos (analogik usul) kabi usuliy vositalar orqali shar’iy hukmga oid zonniy (ehtimoliy) xulosaga erishadi.

Istalgan kishi o’zidagi bor ilmiy kuch-quvvatni sarflab, mujtahidlikni da’vo qilishga haqli emas. Islom metodologiyasida ijtiҳod qilishga layoqati bo’lmagan shaxsning ijtiҳodi maqbul hisoblanmaydi. Agar bunday shaxs tasodifan to’g’ri natijaga erishsa ham ajr olmaydi, gunohkor hisoblanadi. Shu sababli ayrim ulamolar “ijtiҳod” ta’rifiga “faqih” so’zini qo’shishgan. G’azzoliy ham ijtiҳodni ta’riflarkan, “Ijtiҳod atamasi ulamolar istilohida faqihning shar’iy hukmlarni bilish yo’lida barcha imkoniyatini safarbar etishiga nisbatan qo’llanadi”, – deydi [7:17].

Amr ibn Oss (r.a.) rivoyat qilgan hadisda, “Agar qozi hukm chiqarib, ijtiҳod qilsa va to’g’ri topsa unga ikki ajr bor; agar ijtiҳod qilib xato qilsa unga bir ajr bor” [2:112], – deyiladi. Xattobiy ushbu hadisni sharhlab, “Xato qilgan kishi haqiqatni izlash yo’lida qilgan ijtiҳodi uchun mukofotlanadi, chunki uning ijtiҳodi ibodatdir. Ammo xatosi uchun mukofot berilmaydi, balki undan gunoh soqit qilinadi”, – deya ta’kidlaydi [7:14]. Hadisning matnida ham qozi (hukm qiluvchi) so’zi zikr qilingan, demak, ilm va malakaga ega bo’lgan mujtahidgina ijtiҳod qilishi mumkin va u agar xato qilsa, bir ajrga ega bo’ladi, agar to’g’ri topsa esa ikki ajrga sazovor bo’ladi. Chunki uning haqiqatni izlash yo’lidagi sa’y-harakati ibodat sifatida baholanadi.

Muoz ibn Jabal haqidagi hadisda ham ijtiҳodning metodologiyasi aniq bayon etilgan. Rasululloh (s.a.v.) uni Yamanga qozi qilib yuborayotib so’radilar:

– Ey Muoz! Hukm chiqarishda nimadan foydalanasan?

– Allohning kitobidan.

– Agar Allohning kitobidan topa olmasangchi?

– Rasulining sunnatidan qidiraman.

– Rasulining sunnatida ham topa olmasangchi?

– Unda o’z ra’yim bilan ijtiҳod qilaman, – deb javob berdi Muoz ibn Jabal.

Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak yuzlarida xursandchilik alomatlari paydo bo’ldi. Quvonganlaridan: “Rasulullohning elchisini Alloh va Rasuli rozi bo’ladigan ishlarga muvofiq qilib qo’ygan Rabbimizga hamd bo’lsin”, dedilar [10].

Ijtihadning manba va metodologik asoslari muayyan dalil va asosga tayanadi. Bu masala Muhammad (s.a.v.) shaxsiga nisbatan tatbiq etilganda boshqacha tus oladi. Chunki u zotning soʻzlari oʻz-oʻzidan hujjat, manba va asos hisoblanadi. Bu esa vahiy bilan qoʻllab-quvvatlanganligi va diniy hukmlarni yetkazishda maʼsum (xatodan himoyalangan) ekanligi bilan izohlanadi. Sahobalarga kelsak, Shavqoniy taʼkidlashicha, agar ularning ijthodi Muhammad (s.a.v.) tomonidan tasdiqlangan boʻlsa, u holda bu hukm sahobaning ijthodi sifatida emas, balki Paygʻambar tomonidan tasdiqlangan sharʼiy dalil sifatida hujjatga aylanadi.

Shavqoniy mujtahid uchun amal qilinishi lozim boʻlgan metodologik tartibni bayon etib, mujtahid ijthod jarayonida quyidagi bosqichlarga amal qilishi zarurligini taʼkidlaydi [7:20-25]. Mujtahid birinchi navbatda Qurʼon va sunnat matnlarini tekshiradi. Agar masalaga oid hukm shu manbalarda mavjud boʻlsa, uni boshqa barcha dalillardan ustun qoʻyadi. Agar aniq hukm topilmasa, Qurʼon va sunnatning zohiriy maʼnolari hamda ularning lafziy (mantuq) va maʼnoviy (mafhum) dalolatlaridan foydalanadi. Agar bu bosqichda ham natijaga erishilmasa, Paygʻambar (s.a.v.)ning amallariga murojaat qiladi. Soʻngra, u zotning tasdiqlari (taqrirlari)ni koʻrib chiqadi. Keyingi bosqichda, agar mujtahid ijmoni hujjat deb bilsa, ijmoʻga murojaat qiladi soʻngra qiyos usulidan foydalanadi va sabab (illat)ni aniqlash yoʻllari orqali hukm chiqaradi.

Islom huquqshunosligida mujtahid – sharʼiy dalillardan mustaqil ravishda hukm chiqarish salohiyatiga ega boʻlgan olim hisoblanadi. Bunday darajaga erishish uchun u keng qamrovli va chuqur ilmiy tayyorgarlikka ega boʻlishi zarur. Mujtahid bilishi lozim boʻlgan ilmlar, sharʼiy hukmlarning manbalari va ularni anglash vositalari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, mujtahiddan quyidagi ilmlarni mukammal bilishi talab qilinadi:[6:508-521, 1:136-141, 3:13-14].

*Birinchi*dan, mujtahid hukmlarning asosiy manbalarini mukammal bilishi kerak. Bular *Qurʼon, Sunnat, ijmoʻ va qiyos*dan iborat. Mujtahid ushbu dalillarning nafaqat mazmunini, balki ularning oʻzaro tartibini ham bilishi lozim. Agar dalillar oʻrtasida ziddiyat yuzaga kelsa, qaysi biri ustun qoʻyilishini aniqlay olishi zarur.

*Ikkinchi*dan, mujtahid Qurʼondan *ahkom* *oyatlarini* bilishi talab etiladi. Ulamolar bu oyatlarni

taxminan besh yuzta deb baholaganlar. Mujtahid bu oyatlarni soʻzma-soʻz yod olish shart emas, balki ularning maʼnolarini chuqur tushunish, oyatlarning nozil boʻlish sabablari (asbab an-nuzul)ni ham bilishi kerak, chunki bu omil oyat mazmunini toʻgʻri anglashga yordam beradi. Mujtahid uchun qiroatlar ixtilofini bilish ham ahamiyatli boʻlib, ayrim hollarda yangi hukm yoki qoʻshimcha maʼno anglatishi mumkin.

*Uchinchi*dan, mujtahid Sunnatni, yaxshi bilishi zarur hisoblanadi. U hadislarining sahih va zaif turlarini ajrata olishi, roviylarning holatini baholay bilishi yoki ishonchli hadis toʻplamlariga tayana olishi lozim. va Qurʼon va Sunnatdagi *nasx va mansux* masalalarini ham bilishi kerak, chunki bekor qilingan hukm bilan fatvo berish katta xatoga olib keladi.

*Toʻrtinchi*dan, mujtahid *ijmoʻ qilingan masalalarni* bilishi shart. Bu esa uni ulamolar ittifoq qilgan hukmlarga zid fatvo berishdan saqlaydi.

*Beshinchi*dan, mujtahid *usul al-fiqh ilmini* egallagan boʻlishi lozim. Bu ilm dalillarni keltirish (istidlol) qoidalari, ularning shartlari va hukmlarni qanday qilib toʻgʻri istinbot qilish usullarini oʻz ichiga oladi. Usul al-fiqh mujtahid uchun asosiy metodologik poydevor boʻlib xizmat qiladi.

*Oltinchi*dan, mujtahid *arab tili ilmlarini* mukammal darajada bilishi zarur hisoblanadi. Bunga lugʻat, nahv va sarf ilmlari kiradi. Mujtahid ushbu bilimlar orqali lafzlarning turli koʻrinishlarini ajrata olishi kerak: sarih va zohir, mujmal va mubayyan, haqiqiy va majoziy, umumiy va xos, mutlaq va muqayyad, muhkam va mutashobih, nass va fahvo kabi maʼnolarni anglay olishi zarur.

*Yettinchi*dan, mujtahid *balogʻat ilmini*, badiiy va sheʼriy sanʼatdan toʻla xabardor boʻlishi shart hisoblanadi. Bu ilmlar nutqning nozik jihatlarini, uning kontekstga mosligini va yashirin maʼnolarini anglashga yordam beradi. Mujtahid *ijthod qilinadigan masalaning xususiyatlarini* ham eʼtiborga olishi kerak. Masalan, ijthod aqida masalalarida qoʻllanilmaydi, chunki ular faqat vahiyga asoslanadi. Ijthod esa odatda, hayotda yuz beradigan yoki yuz berishi ehtimoli yuqori boʻlgan masalalarda amalga oshiriladi. Ulamolarning koʻpchiligi *ijthodning boʻlinishini (tajazzuʼ)* joiz deb hisoblaydi yaʼni baʼzi mavzuga bogʻliq boʻlgan masalalarni bilgan odam, agar oʻziga bogʻliq boʻlmagan boshqa masalalarni yaxshi bilmasa ham juzʼiy masalalarda ijthod qilsa boʻladi. Chunki

ijtihad malakasini hamma masalalarda ishga solish juda qiyin ish hisoblanadi.

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijti­hod islom huquqshunosligi tizimida nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy-huquqiy mexanizm sifatida ham muhim o'rin tutadi. U shar'iy matnlar – Qur'o, sunnat, ijmo, qiyos asosida yangi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik muammolarga mos ravishda hukm ishlab chiqish imkonini beruvchi dinamik metodologiya bo'lib, shu jihatdan ijti­hod fiqhning tarixiy rivojlanishida uzluksizlik va moslashuvchanlikni ta'minlagan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari ijti­hodning mohiyati faqatgina "hukm chiqarish" jarayoni bilan cheklanmasdan, balki chuqur ilmiy tahlil, dalillarni muvofiqlashtirish va metodologik izchillikni talab qiluvchi murakkab intellektual faoliyat ekanligini tasdiqlaydi. Mujahtid tomonidan qo'llaniladigan istinbot jarayoni qat'iy tartibga solingan bo'lib, Qur'on, Sunnat, ijmo' va qiyos kabi manbalarga tayanadi hamda ularning o'zaro ustuvorligi va talqin usullarini chuqur anglashni talab qiladi. Bu esa ijti­hodning subyektiv fikr emas, balki ilmiy asoslangan va tizimli faoliyat ekanligini ko'rsatadi.

Mujahtid shaxsiga qo'yilgan talablar ijti­hodning mas'uliyatli va yuqori darajadagi ilmiy maqomga ega ekanini ifodalaydi. Qur'on oyatlari, hadis ilmlari, usul al-fiqh, arab tili va balog'at kabi fanlarni mukammal egallash zarurati ijti­hodning faqat tor doiradagi mutaxassislar faoliyati ekanini tasdiqlaydi. Bu esa ijti­hod jarayonining sifati va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida ijti­hodning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Yangi ijtimoiy va ilmiy muammolar – bioetika, moliyaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt va boshqa sohalardagi masalalar an'anaviy manbalarda bevosita ko'rinish topmaganligi sababli, ularni hal etishda ijti­hod muhim ilmiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ijti­hod nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy islom huquqshunosligining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi metodologik asos sifatida qaraladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijti­hod – bu shar'iy matnlarga asoslangan holda, zamon va makon o'zgarishlarini inobatga olgan holda hukm chiqarishning mukammal ilmiy tizimi bo'lib, u islom

huquqining barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi. Uning samarali amalga oshirilishi esa faqat yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan mujahtidlar faoliyati orqali ro'yobga chiqadi. Shu bois, zamonaviy fiqhiiy tadqiqotlarda ijti­hodning nazariy asoslarini chuqur o'rganish va uni amaliy jihatdan rivojlantirish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulvahob Hallof. Usulul fiqh. – Toshkent: Adolat, 1999.
2. Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy. Faroid al-qolaid ala ahadisi sharh al-aqid. – Bayrut: Maktabatul ilmiya, 1990.
3. Haydarov M.M. Zamonaviy fiqhiiy masalalar [matn]. – Toshkent: Tafakkur, 2024.
4. Jo'zjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi: Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – Toshkent: TIU, 2002.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – J. I-VI. – Toshkent: Hilol Nashr, 2024.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usul fiqh. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
7. Said Shabbor. Muxtasar al-ijti­hod va at-tajdid fi fikri al-islam al-ma'asir. – Urdun: Markazi ma'rifati al-islam lidirosati val-abhasi, 2016.
8. Shihobiddin Abul Abbos Ahmad ibn Idris ibn Abdurahmon Sanjoniy. Naf'is al-usul fi sharh al-mahsul. – Bayrut: Dar ul-kutub al-ilmiya, 2000.
9. <http://ahlisunna.uz/>
10. <https://muslim.uz>
11. <https://fiqh.uz>